

**O‘ZBEKISTON SHAROITIDA INDIVIDUAL INVESTORLAR
PORTFELI SAMARADORLIGINI TA’MINLASH
IMKONIYATLARI VA MUAMMOLARI**

Bahriyev Shohzod Mamadillo o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi magistranti
shohzodbahriyev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida individual investorlar tomonidan portfel investitsiyalarini shakllantirish jarayoni, mavjud imkoniyatlar, duch kelinayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar tahlil qilinadi. Fond bozori infratuzilmasining hozirgi holati, kapital bozorining likvidligi, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, axborot ochiqligi va investitsion madaniyat darajasi asosida individual investorlar uchun qulay sharoitlarni baholash ko‘zda tutiladi. Maqolada, shuningdek, portfel investitsiyasi samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar. Individual investorlar, portfel investitsiyasi, investitsion portfel, kapital bozori, fond birjasi, likvidlik, moliyaviy savodxonlik, raqamli investitsiya platformalari, e-IPO, emitent kompaniyalar, diversifikatsiya, investitsion infratuzilma.

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy islohotlar, xususiy sektor faolligining ortishi, kapital bozorining bosqichma-bosqich liberallashuvi va raqamli transformatsiya sharoitida aholining investitsiyaga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada ortmoqda. Ayniqsa, investitsiya vositalarining xilmashillashi, raqamli savdo platformalarining joriy etilishi va bank omonatlaridan yuqoriroq daromad izlovchi qatlamning shakllanishi natijasida portfel investitsiyalariga bo‘lgan talab oshib bormoqda.

Portfel investitsiyasi – bu investor tomonidan o‘z mablag‘larini turli xil aktivlarga (aksiyalar, obligatsiyalar, fondlar va h.k.) taqsimlab, riskni diversifikatsiya qilish orqali yuqori daromad olishga qaratilgan moliyaviy strategiyadir. Mazkur yondashuv, ayniqsa, o‘zining xavfsizlik, likvidlik va daromadlilik o‘rtasida optimal muvozanat izlayotgan individual investorlar uchun jozibador hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida portfel investitsiyalari bozori hali to‘liq shakllanmagan bo‘lishiga qaramay, hukumat tomonidan olib borilayotgan islohotlar, fond birjasining modernizatsiyasi, e-IPO tizimining yo‘lga qo‘yilishi va davlat aktivlarining ommaviy joylashtirilishi jarayoni uni yanada faollashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, kapital bozorida likvidlikning pastligi, investorlar orasida moliyaviy savodxonlikning yetarli darajada emasligi, axborot ochiqligi muammolari,

emitent kompaniyalar sonining kamligi va investitsion vositalar xilma-xilligining yetishmasligi kabi muammolar ham mavjud.

Demak, bugungi kunda O‘zbekistonda portfel investitsiyasi tizimini chuqur tahlil qilish, uning imkoniyatlari va mavjud to‘silqlarini aniqlash, hamda investorlar uchun barqaror daromad manbai bo‘lishi yo‘lidagi strategik yo‘nalishlarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada ushbu masalalar amaliy va tahliliy yondashuv asosida ko‘rib chiqiladi hamda taklif va tavsiyalar beriladi.

Asosiy qism: O‘zbekistonda portfel investitsiyalarini rivojlantirish uchun quyidagi asosiy imkoniyatlar mavjud:

– **Qonunchilik asoslari va institutsional infratuzilma:** Kapital bozorini tartibga

soluvchi qonunlar, xususan, "Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida"gi Qonun, investorlarga huquqiy kafolatlar beradi. Shuningdek, Toshkent Respubлиka fond birjasi, O‘zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi, litsenziyalangan brokerlik va dilerlik tashkilotlari hamda investitsiya fondlari faoliyat yuritmoqda. Bu institutsiyalar investitsion faoliyat uchun asosiy tayanch sifatida xizmat qilmoqda.

– **Davlat siyosati va raqamli texnologiyalar:** O‘zbekistonda fond bozorini raqamlashtirish yo‘lida qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Masalan, e-IPO tizimi orqali fuqarolar aksiyalarni onlayn tarzda xarid qilish imkoniga ega bo‘ldilar. Mobil ilovalar va veb-platformalar orqali investitsiya hisobvaraqlarini yuritish, savdo bitimlarini amalga oshirish soddalashtirildi. Bu texnologiyalar investorlar uchun qulaylik yaratish bilan birga, ishtirokchilar sonini ham oshirmoqda.

– **Makroiqtisodiy barqarorlik va aholi daromadlari o‘sishi:** So‘nggi yillarda aholi

daromadlarining oshishi jamg‘armalarning ko‘payishiga olib keldi. Bank omonatlari, ko‘chmas mulk va oltindan tashqari, portfel investitsiyalari ham foydali alternativ sifatida ko‘rilmoxda. Bu esa yangi investorlarning fond bozoriga kirib kelishini jadallashtiradi.

– **Xususiy sektor va IPO jarayonlari faollashuvi:** Davlat korxonalarini xususiylashtirish va ularni IPO orqali fond bozoriga chiqarish siyosati, masalan, UzAuto Motors, Aloqabank, Qishloq Qurilish Bank kabi yirik subyektlar aksiyalarining ommaviy joylashtirilishi bozor hajmini oshirishga xizmat qilmoqda.

Biroq, rivojlanishni cheklayotgan qator **muammolar** ham mavjud:

• **Moliyaviy savodxonlikning pastligi:** Ko‘plab fuqarolar investitsiya vositalarining mohiyati, risk va daromad o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida yetarli ma’lumotga ega emas. Bu esa noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishiga, spekulativ yondashuvlarga va ishonchsizlikka olib keladi.

• **Bozor likvidligi pastligi:** Toshkent fond birjasida savdo hajmi nisbatan kichik, investorlar soni cheklangan, emitent kompaniyalar esa yetarlicha faol emas. Bu esa aktivlarni osonlik bilan sotib yoki sotishga to'sqinlik qiladi.

• **Axborot ochiqligi va ishonch muammosi:** Issuer kompaniyalar muntazam, batafsil va auditdan o'tgan moliyaviy hisobotlarni taqdim etmasligi natijasida investorlar investitsion qarirlarni ma'lumotlarga asoslangan holda emas, balki taxminlarga tayangan holda qabul qilmoqda.

• **Yangi moliyaviy instrumentlarning cheklanganligi:** Derivativlar, indeks fondlari, obligatsiyalar va boshqa xilma-xil investitsion vositalarning bozorda mavjud emasligi portfel diversifikatsiyasi imkoniyatlarini cheklaydi.

• **Xorijiy investorlar uchun sharoitlarning yetarli emasligi:** Xalqaro investorlar uchun valyutani konvertatsiya qilish, dividendni qaytarib olish, soliqqa oid masalalarda muayyan noaniqliklar mavjud. Bu esa global kapital oqimining jalb qilinishiga to'sqinlik qilmoqda.

Taklif va tavsiyalar. O'zbekiston sharoitida individual investorlarning portfel investitsiyalari samaradorligini oshirish uchun quyidagi chuqur va tizimli yondashuvlar asosida tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish:

Maktab, kollej va oliy ta'limga tizimiga investitsiya asoslari va shaxsiy moliyani boshqarish fanlarini kiritish orqali kelajakdagi investor avlodini shakllantirish mumkin. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va televide niye orqali aholining keng qatlamlariga mo'ljallangan o'quv loyihalarini boshlash tavsiya etiladi.

2. Raqamlı investitsiya xizmatlarini qulay va keng keng ommaga mos sharoitda rivojlantirish:

Mobil ilovalar va veb-platformalar orqali investitsiya jarayonlarini soddalashtirish, “bir tugmali investitsiya” uslubidagi interfeyslarni yaratish, sun'iy intellekt asosida tavsiya tizimlarini joriy etish foydalanuvchi tajribasini sezilarli yaxshilaydi. Bu esa yangi investorlarni jalb qilishga xizmat qiladi.

3. Likvidlikni oshirish uchun faol IPO siyosatini davom ettirish:

Davlat mulkidagi yirik korxonalarni ommaviy aksiyadorlik shakliga o'tkazish va ularning aksiyalarini birjada joylashtirish orqali bozor chuqurligini oshirish mumkin. Yangi IPO'lar nafaqat savdo hajmini, balki aholining investitsion ishtirokini ham kengaytiradi.

4. Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va joriy axborotlarning tezkorligi:

Issuer kompaniyalar uchun majburiy axborot ochiqligi va kvartal asosida auditorlikdan o‘tgan hisobotlarni e’lon qilish tizimini joriy etish zarur. Investorlar uchun birlamchi ma’lumotlarning ishonchli va o‘z vaqtida taqdim etilishi ular qaror qabul qilishda asosiy tayanch bo‘ladi.

5. Yangi moliyaviy instrumentlar va portfel diversifikatsiyasi imkoniyatlarini kengaytirish:

Derivativlar, indeks fondlari (ETF), real estate investment trust (REIT), davlat obligatsiyalari kabi vositalarni bozorga chiqarish orqali investorlar risklarni boshqarish va barqaror daromad olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa bozorning chuqurligi va barqarorligini oshiradi.

6. Xorijiy investorlarga qulay muhit yaratish:

Soliq imtiyozlari, valyuta konvertatsiyasi va transchegaraviy to‘lovlar bo‘yicha huquqiy aniqliklar kiritilishi, xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlikda mamlakat risk darajasini pasaytirish choralar ko‘rilishi zarur. Bu esa xorijiy kapitalni jalb qilishga xizmat qiladi.

7. Regulyator va fond birjasi o‘rtasida faol koordinatsiyani kuchaytirish:

Bozor ishtirokchilarining ehtiyojlariga mos ravishda normativ-huquqiy bazani yangilash, regulyator va birja hamkorligida investorlar uchun tahliliy platformalarni ishga tushirish, muvozanatli va ochiq bozor muhitini yaratish zarur.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekistonda individual investorlarning portfel investitsiyasi bilan shug‘ullanishi uchun muhim institutsional asoslar shakllanmoqda. Mavjud qonunchilik, infratuzilma, e-IPO tizimi va raqamli texnologiyalar joriy etilayotgani investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, moliyaviy savodxonlikning pastligi, bozor likvidligining cheklanganligi, axborot ochiqligi va investitsion vositalar xilma-xilligining yetishmasligi kabi muammolar mavjudligicha qolmoqda.

Portfel investitsiyasi samaradorligini ta’minalash uchun davlat, fond birjalarini va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, investorlar bilimini oshirish, axborot shaffofligini ta’minalash, bozor likvidligini oshirish va zamonaviy moliyaviy instrumentlarni joriy etish dolzarb vazifalardan biridir. Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilgan taqdirda, O‘zbekistonda portfel investitsiyasi nafaqat individual investorlar darajasida, balki milliy iqtisodiyotni moliyalashtirish vositasi sifatida ham muvaffaqiyatli rivojlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni, 2015-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4422-sonli qarori, 2019-yil 7-avgust. Investitsion faoliyatni rivojlantirish va tartibga solish chora-tadbirlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi rasmiy sayti — www.cmda.uz
4. Toshkent Respublika fond birjasi rasmiy sayti — www.uzse.uz
5. Moliya vazirligi statistik byulletenlari, 2023–2024-yillar.
6. Jahon banki (World Bank). Uzbekistan Economic Update Report, 2023.
7. International Monetary Fund (IMF). Financial Sector Assessment Program: Uzbekistan, 2022.
8. Bodie, Z., Kane, A., & Marcus, A. J. (2021). *Investments*. 12th ed. McGraw-Hill Education.
9. Fabozzi, F. J. (2014). *Handbook of Portfolio Management*. Wiley.
10. Elton, E. J., & Gruber, M. J. (2010). *Modern Portfolio Theory and Investment Analysis*. Wiley.